

**“TASDIQLAYMAN”**

**"Karmana tumani obodonlashtirish"  
boshqarmasi boshlig'i**

**S. Sa'dullayev**

**2022 y.**



**Navoiy viloyati Karmana tumani “Arabxona” MFY Bobodehqon ko’chasini joriy  
ta’mirlash bo’yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishga**

## **TEXNIK TOPSHIRIQ**

(2- nusxada tayyorlandi)

Buyutmachi	"Karmana tumani obodonlashtirish" boshqarmasi
Bosh loyihachi	"Samo yo'l loyiha" MCHJ
Bosh pudratchi	Tanlov asosida aniqlanadi
Loyihalash Uchun asos	<b>Karmana tumanidagi jamoatchilik fikri asosida "Ochiq byudjet" axborot portalida eng ko'p ovoz to'plagan takliflarni saralab olish hamda jamg'arma mablag'laridan moliyalashtiriladigan tadbirlar to'g'risidagi 2021 yil 21 sentiyabrdagi 5250-sonli qarori</b>
Qurilish turi	Joriy ta'mirlash (qurish, rekonstruksiya, to'liq ta'mirlash)
Obyektning joylashgan o'rni	Navoiy viloyati, Karmana tumani (obyekt joylashgan viloyat, Shahar, tuman)
Loyihalashtirish bosqichi	<u>1 bosqichli</u> (DTIH, TIH, ishchi loyiha, ishchi hujjat)
Loyihalashning alohida sharoitlari	Qishloq ichki yo'llari aholi turar joyi hududi bo'lganligini e'tiborga olib, qishloq hududidagi ko'chalarning parametrlari " <b>Reja-sxema</b> "si ishlab chiqilib, tuman hokim o'rinbosari tomonidan tasdiqlansin.
Shahar va yirik aholi punkitlaridan yo'lni o'tkazish sharti	SHNQ 2.07.01-03*, SHNQ 2.05.02-07, SHNQ 2.05.11-19, QMvaQ 2.05.03-97 (qaysi QMQ, SHNQ qo'llanmalar talabi asosida)
Joyning tavsifi	Tuman hududi, tekis rel'efdan iborat (loyihalananayotgan hudud joylashuvi)
Qurilish ishlarini boshlanishi	2022 yil.
Qurilish ishlarini tugallash	2022 yil.
Yo'lning asosiy ko'rsatgichlari	"Arabxona" MFY Bobodehqon ko'chasini uzunligi – 0,154km. Qatnov qismi kengligi – 4,5m. Yo'l cheti kengligi – 0, 5x2m. Yo'l poyi kengligi – 5,5m. Mayda donali zich issiq asfaltbeton qorishmasidn h=5sm qalinlikda qoplama qurish.
Loyihalashtirish uchun boshlang'ich ma'lumotlar	Asosiy qurilish materiallari va konstruksiyalarining sifati, olish manbalari, tansportda tashish sharoitlari, temirbeton konstruksiya, detallar va mahsulotlarni tayyorlovchi zavod va bazalar, olib boruvchi va yuk tushirish yo'llari, yo'l qorishmalarini tayyorlovchi korxonalar omborlari va yo'l qurilish materiallari kar'erning mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar, loyihaning smeta hujjatlarida hisobga olinishi kerak bo'lgan ustama xarajatlar, imtiyozlar miqdori, nuqsonlar qaydnomasi, qo'shimchalar yoki boshqa xarajatlarga koeffisientlar bosh loyihachi tashkilot tomonidan to'planib, buyurtmachi bilan kelishilishi lozim

Loyihani davlat ekspertizasidan o'tkazish	Buyurtmachi tashkilot zimmasida qoladi.
Loyihalarni ishlab chiqishni tugatish muddati	Shartnomada aniqlanadi.
Yo'l va avtotransport xizmati bino va inshootlar joylashuv zaruriyati	Zarurat yo'q.
Texnik jarayonlar, jihoz va uskunalarga talablar	Pudratchilarning mavjud quvvatlariga asoslangan holda aniqlanadi;
Qurilishni resurslar bilan ta'minlash	Mahalliy materiallardan foydalanishga ustuvorlik berilib ishchi loyihada aniqlanadi;
Табний атроф-муҳит муҳофазасига талаблар	Me'yoriy hujjatlar talablari asosida hisoblansin.
Hududni tiklash va obodonlashtirish bo'yicha talablar	Yerdan oqilona foydalanish ta'minlanishi lozim. Atrof-muhitni himoyalash, buzilgan yerlarni tiklash ishlari harajatlari ko'zda tutilishi kerak;
Loyihalshda erishish zarur bo'lgan asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar	Yo'lning texnik-foydalanish ko'rsatkichlarini zaruriyat va me'yoriy talablardan kelib chiqib, takomillashtirish ko'zda tutilishi lozim (o'tkazish qobiliyati, harakat xavfsizligi, tashish tannarxini kamaytirish v.b.);
Kapital qo'yilmalarning mo'lallanayotgan hajmi va moliyalashtirish manbalari	Moliyalashtirish manbai: Mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan.
Qurilishni tugatish va quvvatlarni ishga tushurishning mo'lallanayotgan muddatlari	Loyihalashtirilayotgan ishlar hajmidan va texnologik talablardan kelib chiqib, ishchi loyihada aniqlanadi.
Standartlarga rioya qilish talablari	Mahaliy standart
Topshirish –qabul qilish tartibi	Ishchi loyiha ushbu texnik topshiriq talablariga binoan qabul qilinadi. Smetalar amaldagi narxlarda hisoblab chiqilishi lozim. Ishchi loyiha 3 nusxada va amaldagi standartlar bo'yicha rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

**Buyurtmachi:**

"Karmana tumani obodonlashtirish"

boshqarmasi vakili:

" " 2022y.

  
(ИМЗО)

**Bosh loyihachi tashkilot:**

"Samo yo'l loyiha" MCHJ

loyiha bosh muhandisi

" " 2022y.

  
(ИМЗО)